

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ABDURAXMANOV ALIJON ABDULAXATOVICH**

**MAYDA DONADOR MATERIALLARNING ISSIQLIK NAMLIK  
XARAKTERISTIKALARINI TADQIQ QILUVCHI QURILMANI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.03.01 – Asboblari. O'lchash va nazorat qilish usullari (texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Abduraxmanov Alijon Abdulaxatovich**

Mayda donador materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qiluvchi qurilmani takomillashtirish.....3

**Абдурахманов Алижон Абдулахатович**

Совершенствование устройства для исследования тепловлажностных характеристик мелкозернистых материалов.....21

**Abdurakhmanov Alizhon Abdulakhatovich**

Improving the device for studying the heat and moisture characteristics of fine-grained materials.....39

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....43

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ABDURAXMANOV ALIJON ABDULAXATOVICH**

**MAYDA DONADOR MATERIALLARNING ISSIQLIK NAMLIK  
XARAKTERISTIKALARINI TADQIQ QILUVCHI QURILMANI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.03.01 – Asboblar. O'lchash va nazorat qilish usullari (texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T598 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz)) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Uljayev Erkin**

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Muhamedxanov Ulugbek Turgudovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Jumayev Odil Abdimajitovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon mashinasozlik instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: [tstu\\_info@tdtu.uz](mailto:tstu_info@tdtu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2. Tel.: (99871) 207-14-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**N.R.Yusupbekov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
t.f.d., professor, O‘zR FA akademigi

**U.F.Mamirov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

**U.T.Muxamedxanov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda oziq-ovqat, qurilish va farmatsevtika sanoati kabi turli sohalarda xomashyo sifatida foydalaniladigan mayda donador materiallarning sifatini baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, mayda donador materiallardan foydalanadigan ishlab chiqarish jarayonlarida mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi asosiy parametrlarini, jumladan harorat va namlik ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish va baholash bilan texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali yakuniy ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini oshirishga doir bir qator muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, mayda donador materiallarning tarkibiy parametrlari, xilma-xilligi va murakkabligini inobatga olgan holda ularning turli sifat ko'rsatkichlarini bir vaqtning o'zida texnik va metrologik xossalarga ega o'lchash va nazorat qilish imkoniyatini beruvchi takomillashtirilgan o'lchash qurilmalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda mayda donador materiallardan foydalanadigan ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish maqsadida, xususan uzluksiz oqimda xomashyoning harorati va namligini nazorat qilish imkoniyati ta'minlangan, o'lchash jarayonining tezkorligi va aniqligini oshirishga qaratilgan o'lchash usullari va vositalarini takomillashtirishga doir bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, issiqlik usuliga asoslangan issiqlik namlik o'zgartkichlari yordamida xomashyoning asosiy sifat parametrlari sanaladigan harorat va namlik ko'rsatkichlarini o'lchash va nazorat qilish orqali texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlarining sifat ko'rsatkichlarini ortishiga imkon beruvchi usullarni ishlab chiqish bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, uzluksiz oqimda mayda donador materiallarning harorati va namligini o'lchash va nazorat qilishda tezkorligi, sezgirligi va aniqligi yuqori bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlovchi, o'lchash natijalarini raqamli ko'rinishda boshqarish tizimiga masofadan uzatuvchi o'lchash vositalarini yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda farmatsevtika va qurilish sanoatini tubdan takomillashtirishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar keng miqyosda amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, jumladan, "... qurilish materiallari sohasini yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish; ... farmatsevtika sanoati mahsulotlarini uch baravar; ... qurilish materiallarini ikki baravar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish; ... qurilishga ketayotgan vaqtni 30 foizga kamaytirish; ... qurilish tannarxini 20 foizga arzonlashtirish"<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, farmatsevtika va qurilish sanoatidagi texnologik jarayonlarni takomillashtirish, uzluksiz oqimda mahsulotlarning harorati va namligini doimiy ravishda tezkor, aniq va ishonchli o'lchaydigan, yaratish texnologiyasi arzon, ko'p funksiyali, ma'lumotlarni masofadan uzatish imkoniga ega vositalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni va 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son “Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energiya, energiya va resurslarni tejash”, IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahonda mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog‘liqlik parametrlarini nazorat qiluvchi qurilmalarni nazariy va amaliy tomondan yaratish, takomillashtirish va amaliyotga qo‘llash masalalari bo‘yicha yetakchi ilmiy markazlar va muassasalarda, jumladan, Hydronix, Hewlett-Pascard (Buyuk Britaniya), Siemens, Ludwig Moisture Control (Germaniya), Wile Farmcomp (Finlyandiya), MoistScan (Avstraliya), RusAvtomatizatsiya (Rossiya) hamda oliy ta‘lim muassasalaridan Qirolicha Meri Universiteti (Buyuk Britaniya), Tokio texnologiya instituti (Yaponiya) va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ham keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha P.M.Cornish<sup>1</sup>, S.O.Nelson<sup>2</sup>, B.Wang<sup>3</sup>, Qi-Jun Zhang<sup>4</sup>, M.A.Berliner<sup>5</sup>, Ye.S.Krichevskiy<sup>6</sup>, S.V.Artemova<sup>7</sup> hamda boshqa xorijlik olimlar izlanishlar olib borgan. Shuningdek, respublikamizning taniqli olimlari N.R.Yusupbekov<sup>8</sup>, X.Z.Igamberdiyev<sup>9</sup>, P.R.Ismatullayev<sup>10</sup>, P.M.Matyakubova<sup>11</sup>, Sh.M.Gulyamov<sup>12</sup>, R.K.Azimov<sup>13</sup>, E.Uljayev<sup>14</sup>, va boshqalar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shganlar.

<sup>1</sup> Cornish, P., Laryea, K., & Bridge, B. (1973). A nondestructive method of following moisture content and temperature changes in soils using thermistors. *Soil Science*, 115, pp. 309–314.

<sup>2</sup> Stuart O. Nelson, Samir Trabelsi Historical development of grain moisture measurement and other food quality sensing through electrical properties // *IEEE Instrumentation & Measurement Magazine*. 2016. Vol. 19, Issue: 1, – pp. 16-23.

<sup>3</sup> B.Wang, Z.Fan, P.Lv, J.Zhao, & Y.Song (2017). Measurement of effective thermal conductivity of hydrate-bearing sediments and evaluation of existing prediction models. *International Journal of Heat and Mass Transfer*, 110, – pp. 142-150.

<sup>4</sup> Zhang Q.J., Gupta K.C. *Neural Networks for RF and Microwave Design*. – Artech House, Boston, London, 2000. – 392 p.

<sup>5</sup> Берлинер М.А. Измерения влажности. Изд. 2-е, перераб. и доп., М.: Энергия, 1973. – 400 с.

<sup>6</sup> Кричевский Е.С., Волченко А.Г., Галушкин С.С. Контроль влажности твердых и сыпучих материалов, М.: Энергоатомиздат, 1987. – 136 с.

<sup>7</sup> Артемова С.В. Решение задачи структурного построения программного обеспечения интеллектуального датчика влажности // Программные продукты и системы. 2013. №3, – С. 272-276.

<sup>8</sup> Yusupbekov N., Adilov F. Development and Improvement of Systems of Automation and Management of Technological Processes and Manufactures // *Journal of Automation, Mobile Robotics & Intelligent Systems*. – 2017. – Т. 11. – №. 3.

<sup>9</sup> Юсупбеков, Н.Р., Игамбердиев, Х.З., Гулямов, Ш.М. 2007. Информационные технологии автоматизации производственных процессов. *Химическая технология. Контроль управления*, (1), p.50.

<sup>10</sup> Исмагуллаев П.Р., Рахманов О.Т., Жаббаров Х.Ш. Высокочастотный метод и устройство для измерения влажности твердых и сыпучих материалов // *Химическая технология. Контроль и управления*. 2012. №1, – С. 32-35.

<sup>11</sup> Матякубова П.М. Методы и технические средства контроля параметров влаготепловой обработки зерновой продукции. // Автореф. дисс. док. тех. наук. – Ташкент. 2009. – 46 с.

<sup>12</sup> Гулямов Ш.М., Игамбердиев Х.З., Ниязов З.К., Матякубова П.М. Автоматизированное управление процессом приемки зерна на мукомольном предприятии // *Промышленные АСУ и контроллеры*. 2008. №4, – С.4-7.

<sup>13</sup> Азимов Р.К. Измерительные преобразователи с тепловыми распределенными параметрами. Москва, издательство Энергия, 1977

<sup>14</sup> Улжаев Э. ва б., Сочилувчан материалларнинг сифимли нам ўлчагичи // Ихтиро учун гувоҳнома № IAP 05578, 17.03.2018 й.

Mayda donador materiallar ko'p tarkibli, fizik-kimyoviy murakkab xususiyatlarga ega bo'lib, bu muammoni yechishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda mayda donador sochiluvchan materiallarning harorati va namligini o'lchashda, monitoring qilishda, issiqlik usuliga asoslangan issiqlik namlik o'zgartkichlarining tuzilishi, mikroprotessorli intellektuallashtirilgan texnologiyalarning qo'llanilishi, xarakteristikalarini o'zgarishi va ularning konstruksiyalarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-A3-57-sonli "Nanostrukturali kremniy o'zgartkichlar asosida turli obyektlarning harorati va namligini nazorat qiluvchi mikroprotessorli o'lchash asbobini ishlab chiqish" (2017-2018) loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** uzluksiz oqimda mayda donador materiallar xarakteristikalarining haroratga bog'liqligini nazorat qiluvchi takomillashtirilgan o'lchash qurilmasini yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

uzluksiz oqimda mayda donador sochiluvchan materiallar harorati va namligini o'lchash qurilmalarini yaratish nazariyasi va amaliyotga joriy etilganlik darajasining zamonaviy holatini tahlil etish;

mayda donador sochiluvchan materiallarni issiqlik namlik xossalariga ko'ra tadqiq qilishda issiqlik oqimining taqsimlanishini yuqori aniqlik bilan tadqiq qilish va baholash imkoniyatini beradigan qurilmaning fizik va matematik modellarini yaratish;

mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini tadqiq qiluvchi qurilmani strukturaviy va parametrik loyihalash usullari va algoritmlari asosida takomillashtirish;

mayda donador sochiluvchan materiallarning harorati va namligini nazorat qilish uchun issiqlik usuliga asoslangan quvurli namlik o'lchash qurilmalarining asosiy statik va dinamik xarakteristikalarini aniqlash;

mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini tadqiq qiluvchi qurilmaning tajriba namunasini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

**Tadqiqotning obykti** mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini nazorat qiluvchi takomillashtirilgan qurilma va uni o'lchash sxemasi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini tadqiq qilishda issiqlik usuliga asoslangan issiqlik namlik o'zgartkichlari va ularning o'lchash sxemasini takomillashtirish usullaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini bajarish davomida taqsimlangan issiqlik parametrlariga ega o'zgartkichlarni loyihalash usullari, matematik modellashtirish usullari, namlikni o'lchash usullari, nazariyalari, o'lchash natijalarini qayta ishlash qonuniyatlari va ehtimollik nazariyalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

quvurli o'zgartkichlar bo'ylab issiqlik oqimining taqsimlanishini yuqori aniqlik bilan tadqiq qilish va baholash imkoniyatini beradigan, to'rt qutbli sxemalar nazariyasiga asoslangan bir va bir jinsli bo'lmagan quvurli issiqlik namlik o'zgartkichlarining fizik va matematik modellari ishlab chiqilgan;

mayda donador sochiluvchan materiallarning harorat va namligini o'lchash qurilmasining tuzilishini, asosiy elementlarining aniqlik va tezlik mezonlariga ko'ra optimallashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy elementlarining maqbul kattaliklarini tanlashga imkon beruvchi morfologik jadvallari ishlab chiqilgan;

issiqlik usuli asosida mayda donador sochiluvchan materiallarning harorati va namligini yuqori aniqlikda nazorat qiluvchi o'lchash qurilmasining turli muhitlarda qanchalik aniqlik va tezkorlik bilan ishlashini baholashga imkon beruvchi statik va dinamik xarakteristikalar qurilgan;

mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qilish uchun taqsimlangan issiqlik parametrlariga ega quvurli o'tkazgich asosida tuzilgan, issiqlikka o'ta sezgir va uni kam sezuvchi bo'lgan uchta qismdan tashkil topgan takomillashtirilgan o'lchash qurilmasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlikka bog'liqlik parametrlarini tezkor ravishda aniqlovchi qurilmaning konstruksiyasi ishlab chiqilgan. O'tkazilgan hisoblar va tadqiqotlar natijasida uning entropiya xatoligi 0.6 % ekanligi ko'rsatilgan;

mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qiluvchi takomillashtirilgan qurilmaning maqbul konstruksiyasi va sxemasini loyihalashga yordam beruvchi morfologik jadval va qurilma elementlarini sezgirlik, tezlik va chiziqlilik me'zonlari asosida hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

mayda donador sochiluvchan materiallarning 0-90 °C harorat va 0-20 % namlik diapazonlarida o'lchash imkoniyatini beruvchi takomillashtirilgan qurilma ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan o'lchash asbobi "Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy tadqiqot instituti"ning ko'p tarmoqli sinov laboratoriyasida sinovdan o'tkazilib, uning metrologik xarakteristikalari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Namlik va haroratni o'lchashda haroratga bog'liqlik parametrlarini tadqiq qiluvchi o'zgartkichlar tahlili, ishlab chiqarishda zamonaviy ilmiy tadqiqot va standart usullaridan foydalanilgan holda olib borilgan bo'lib, mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini tadqiq qiluvchi qurilmani yaratishda amalga oshirilgan eksperimental tajriba ishlari, hisob-kitob natijalariga o'zaro mosligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini tadqiq qilishda, funksional imkoniyatlari bilan keskin ajralib turadigan va yuqori aniqlik bilan tadqiqotlar o'tkazishni ta'minlovchi,



issiqlik usuliga asoslangan o'lchash qurilmalarini takomillashtirishga imkon beradigan matematik modellar, algoritmlar va konstruktiv yechimlar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati, uzluksiz oqimda mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini nazorat qiluvchi, issiqlik usuliga asoslangan o'lchash qurilmalarini sezgirlik, aniqlik, tezkorlik, statik va dinamik xarakteristikalarining chiziqlilik tamoyillariga ko'ra takomillashtirish orqali undan foydalanishda o'lchashlarga sarflanadigan vaqtni sezilarli darajada kamaytirish va tezkor o'lchovlarni amalga oshirish mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mayda donador materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini tadqiq qiluvchi mikroprotessorli takomillashtirilgan o'lchash qurilmasini ishlab chiqish asosida:

quvurli issiqlikka sezgir, mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog'liqlik parametrlarini tadqiq qiluvchi o'lchash qurilmasi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligi tomonidan ixtiro uchun (IAP 06143-sonli) patent berilgan. Natijada o'lchash vositasini qurishning asosiy prinsiplari va fizik modeli yaratilgan hamda harorat va namlikni uzluksiz oqimda o'lchash orqali ishlab chiqarish sohasida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyati yaratilgan;

mayda donador sochiluvchan materiallarning harorati va namligini tadqiq qiluvchi o'lchash qurilmasi O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tarkibidagi «Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy tadqiqot instituti» DK ko'p tarmoqli sinov laboratoriyasida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 24-06/256-son ma'lumotnomasi). Natijada mayda donador sochiluvchan materiallarning harorati va namligi to'g'risidagi o'lchash ma'lumotlarini talab etilgan aniqlikda tezkorlik bilan olish imkoniyatiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shulardan 6 tasi – O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlardagi maqolalar, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligi tomonidan tasdiqlangan 1 ta ixtiro uchun patent hamda 1 ta dasturiy ta'minot uchun guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 110 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy

natijalari bayon qilingan, olingan natijalar asosida ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Mayda donador materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qiluvchi usullar va mavjud o'lchash qurilmalari”** deb nomlangan birinchi bobida mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik xossalariga asoslangan namlikni o'lchash usullari va vositalari tahlil qilingan. Uzluksiz oqimda mayda donador sochiluvchan materiallarning harorat va namlik ko'rsatkichlarini o'lchash va nazorat qilish uchun usullar va asboblarni rivojlantirishning umumiy masalalari, rentgen nurlarining diffraksiyasi, infraqizil termografiya, yadro magnit-rezonans spektroskopiyasi, vaqt-domen reflektometriyasi usullari, qolaversa termogravimetrik analizator hamda lazer tasvirli qurilmalar, issiqlik mikroskopiyasi asboblari, sig'imli, optik tolali o'zgartkichlarning qurish prinsiplari, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan.

Ishda zamonaviy mikroprotessorli vositalar bilan qo'llashni qulayliklari, funksional imkoniyatlari, konstruktiv va boshqa xususiyatlarini, ishlash rejimlarini o'rganish asosida mayda donador sochiluvchan materiallarining issiqlik namlik parametrlarini nazorat qilish uchun issiqlik usuliga asoslangan o'lchash qurilmalari tahlil etilib, ularni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari keltirilgan va asoslangan.

Ishda xorijiy firma va korxonalar, shuningdek, respublikamiz olimlari tomonidan ishlab chiqilgan namlik o'lchash asboblari tahlil qilingan. Masalan, galogen qizdirgichli “Analizator HX204”, universal keng polosali “VIMS-3” dealkometrik o'zgartkichi, vaqt-domen reflektometriyasiga asoslangan “SONO-VARIO Xtrem LD” qurilmasi, M-Sens 2 namlik o'lchagichi hamda ToshDTU olimlari tomonidan ishlab chiqilgan namlik o'lchash asboblari tahlil qilingan. Boshqa usullardan farqli o'laroq, issiqlik fizik xossalariga asoslangan issiqlik namlik o'zgartkichlari soddaligi, qo'shimcha elementlarni talab qilmasligi, uzluksiz oqimda yaxshi ishlay olish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.


Issiqlik fizik xossalariga asoslangan issiqlik namlik o'zgartkichlarining muhim kamchiliklaridan biri bu qizdirish uchun quvvat sarfining yuqoriligi va haroratning taqsimlanish qonuniyatlarini murakkabligidir. Shu sababli yillar mobaynida issiqlik usuliga asoslangan o'lchash qurilmalari ustida yetarli tadqiqotlar olib borilmagan. Chunki issiqlikning yo'qotilishi bu turdagi o'lchash qurilmalarining samaradorligini kamaytiradi. Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni chetlab o'tib, uzluksiz oqimda muntazam ishlay oladigan, standart talablariga javob beradigan zamonaviy o'lchash o'zgartkichlarini yaratish mumkin. Shuning uchun mayda donador sochiluvchan materiallarning harorati va namligini nazorat qilish uchun issiqlik namlik o'zgartkichlarini tadqiq etish va ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qiluvchi takomillashtirilgan o'lchash qurilmasini matematik modellashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida qurilmaning takomillashtirilganligi mayda donador materiallarning issiqlik namlik

xarakteristikalarini tadqiq qilishda ko‘priki o‘lchash sxemalari, analog raqamli o‘zgartkichlar, kengaytirilgan xotiraga ega mikrokontrollerlar asosida qurilgan mikroEHM bilan asoslangan. Keltirilgan takomillashtirilgan o‘lchash qurilmasining funksiyalariga berilgan dasturga muvofiq ma’lumotlarni qayta ishlash, qizdirish elementining haroratini yuqori aniqlik bilan nazorat qilish uchun boshqaruv ma’lumotini shakllantirish, mayda donador materiallarning o‘lchangan parametrlari to‘g‘risida ishonchli ma’lumot beradigan signalni qayta ishlash kabilar kiradi.

Shuningdek takomillashtirilgan o‘lchash qurilmasi atrof-muhit harorati va namligi o‘zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklarning oldini olish, noaniq mantiqiy ma’lumotlarning mavjudligi bilan bog‘liq xatoliklarni to‘g‘irlash, moslashishni amalga oshirish, olingan ma’lumotlarning ishonchligini baholash va o‘z-o‘zini kalibrlash orqali takomillashtirilgan. Tadqiq etilayotgan o‘lchash qurilmasining takomillashtirilganligi statik va dinamik tavsiflarni hisoblash va shakllantirishda o‘lchash natijalari ma’lumotlaridan yuqori darajada samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Ishda issiqlik fizik xossalari asoslangan, bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan takomillashtirilgan harorat va namlik o‘lchash qurilmalarining matematik va fizik modellari tadqiq qilinib, ularning eksperimental natijalarga mosligi aniqlangan. Tajriba ishlarida ko‘rib chiqilgan takomillashtirilgan harorat va namlik o‘lchash qurilmalarining umumlashtirilgan struktura sxemasi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Takomillashtirilgan qurilmaning umumlashtirilgan struktura sxemasi.

Qurilmaning ishlash prinsipi tadqiq qilinayotgan materialning harorati  $X_{kir2}(T)$  va namligiga  $X_{kir1}(W)$  bog‘liq bo‘lgan parametrlar, issiqlik oqimi va  $F(0, \tau)$  uning tarqalishiga  $F(x, \tau)$ , qolaversa o‘zgartkich bo‘ylab dastlabki harorat  $T(0, \tau)$  hamda uning taqsimlanishi  $T(x, \tau)$  bo‘yicha issiqlik fizik qonunyatlariga muvofiq tahlil qilinib, tashqi ta’sirlarni hisobga olgan holda harorat va namlikni nazorat qilishga asoslangan. Umumiy holda, quvurli o‘tkazgich asosidagi issiqlik namlik o‘zgartkichining umumlashtirilgan matematik modelini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$X_{chIQ}(\tau) = F_1(\vec{B})[F_2 X_{kir1}(W), X_{kir2}(T), \vec{B}] \Phi(0, \tau).$$

Bu yerda,  $F_1$  va  $F_2$  operatorlar  $\Phi(0, x)$  issiqlik oqimining quvurli issiqlik o‘tkazgich bo‘yicha harorat taqsimotini o‘zgartirish jarayonini aks ettiradi.


Umumlashgan struktura sxemasi asosida bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan (2-rasm) mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog‘liqlik parametrlarini nazorat qiluvchi qurilmalarning fizik modellari tadqiq qilingan.



2-rasm. Mayda donador sochiluvchan materiallarning haroratga bog‘liqlik parametrlarini nazorat qiluvchi qurilmalarning fizik modellari.


Bu yerda a) – bir jinsli quvurli issiqlik o‘tkazgich; b) – tarkibli (bir jinsli bo‘lmagan) quvurli issiqlik o‘tkazgich; 1,1’,2’,3’ – issiqlik o‘tkazgich bo‘laklari; 2 – qizdiruvchi element; 3 – bunker; 4 – sharli ta’minlovchi.

Bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan issiqlik namlik o‘zgartkichlarining fizik modellari ustida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasi issiqlik oqimi va haroratning taqsimlanishi quyidagicha bo‘lishini ko‘rsatdi (3-rasm):



3-rasm. Bir jinsli issiqlik namlik o‘zgartkichi a) va issiqlik oqimining tarqalish grafigi b).

Mayda donador sochiluvchan materiallarning bir jinsli issiqlik namlik o‘zgartkichining matematik modelini tuzish uchun uning issiqlik tizimini issiqlik to‘rtqutbliligi sifatida (4-rasm) tasavvur etish tavsiya etilgan, kirish kattaliklari sifatida harorat  $T$  va issiqlik oqimi  $F$  dan foydalanilgan.



4-rasm. Bir jinsli quvurli issiqlik namlik o'zgartgichning fizik modeli a) va operatorli shakli b).

Bu yerda  $A_1$  va  $A_2$  – issiqlik to'rtqutbliklari;  $T_1, \Phi_1$  –  $A_1$  to'rtqutblik kirishidagi harorat va issiqlik oqimi,  $T_2, \Phi_2$  –  $A_1$  to'rtqutblik chiqishidagi harorat va issiqlik oqimi;  $T_3, \Phi_3$  –  $A_2$  to'rtqutblik kirishidagi harorat va issiqlik oqimi,  $T_4, \Phi_4$  –  $A_2$  to'rtqutblik chiqishidagi harorat va issiqlik oqimi.

Issiqlik tizimining tahlilini soddalashtirish maqsadida, bir jinsli qurilma tizimi parametrlari ko'rib chiqilgan. Bu yerda quyidagi cheklanishlar qabul qilingan: issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $\alpha = const$  bo'lganda  $r_1 = r_2 = r_3$ , quvurli o'tkazgichning diametri  $D = const$  va issiqlik miqdorining quvurli o'tkazgich yuzasi bo'yicha bir tekis taqsimlanishi  $\frac{l^2 R_{qe}}{l_{qe}} = const$ . U holda tizimning matritsa ko'rinishida matematik modulini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\begin{aligned} \left| \begin{array}{c} T_1(x, p) \\ \Phi_1(x, p) \end{array} \right| + \left| \begin{array}{c} T_q(x, p) \{ch[\gamma(p)x] - 1\} + \frac{r}{\gamma(p)} \Phi_q(x, p) sh[\gamma(p)x] \\ \frac{T_q(x, p)}{Z(p)} sh[\gamma(p)x] + \Phi_q(x, p) \{1 - ch[\gamma(p)x]\} \end{array} \right| = \\ = \left| \begin{array}{cc} A(x, p) & B(x, p) \\ C(x, p) & D(x, p) \end{array} \right| \left| \begin{array}{c} T_1(0, p) \\ \Phi_1(0, p) \end{array} \right|. \end{aligned}$$

Bunda  $A_1$  va  $A_2$  to'rtqutbliklarning parametrlari quyidagi ifodalar orqali aniqlanadi:

$$\begin{aligned} A_1(x, p) &= A_2(x, p) = ch[\gamma(p)x]; \\ B_1(x, p) &= B_2(x, p) = -Z(p)sh[\gamma(p)x]; \\ C_1(x, p) &= C_2(x, p) = -\frac{1}{Z(p)}sh[\gamma(p)x]; \\ D_1(x, p) &= D_2(x, p) = ch[\gamma(p)x]. \end{aligned}$$

Bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan issiqlik namlik o'zgartkichlarining fizik modellari va ularning ishlash prinsiplari o'xshashligi tufayli ushbu ikkala fizik modellarga oid matematik modellar ham umumiydir. Bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan quvurli o'tkazgichli fizik modellarning asosiy farqi quyidagidan iborat: bir jinsli modellarda  $r_1 = r_2 = r_3$ , bir jinsli bo'lmagan modellarda esa  $r_1 = r_3$  ga teng bo'ladi, ammo  $r_2 < r_1$  ba  $r_2 < r_3$  bo'lishi kerak.

Natijada mayda donador materiallarning xarakteristikalarini tahlil etish uchun umumiy matematik modelni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$T_1(x) = T_0(0)ch\gamma(x) + \frac{q}{g}(1 - ch\gamma(x)) = \left[T_1(0) - \frac{q}{g}\right]ch\gamma(x) + \frac{q}{g}.$$


$$T_2(x) = T_3\left(\frac{l_{qe}}{2}\right)ch\gamma_2(x) - Z_2\Phi_2\left(\frac{l_{qe}}{2}\right)sh\gamma_2(x)x = T_2\left(\frac{l_{qe}}{2}\right)e^{-r_2(x)x}.$$

Yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanib bir jinsli bo‘lmagan quvurli issiqlik o‘zgartgichining matematik modelini tuzish mumkin:

$$T_1(x) = \frac{q}{g} \left\{ 1 - \frac{ch[\sqrt{r_2(c_2p + g)} \cdot x]}{ch[\sqrt{r_2(c_2p + g)}] + \frac{\sqrt{r_2(c_2p + g)}}{\sqrt{r_3(c_3p + g)}} \cdot sh\left[\sqrt{r_2(c_2p + g)} \cdot \frac{l_{qe}}{2}\right]} \right\}.$$

$$T_2(x) = \frac{\sqrt{r_2(c_2p + g)}}{\sqrt{r_3(c_3p + g)}} \left[ \frac{q}{g} - T_1(0) \right] sh\left[\sqrt{r_2(c_2p + g)} \cdot \frac{l_{qe}}{2}\right] e^{-(x - \frac{l_{qe}}{2})\sqrt{r_3(c_3p + g)}}.$$

Matematik modellarga asoslanib, bir jinsli bo‘lmagan issiqlik namlik o‘zgartkichini loyihalash algoritmi yaratilgan (5-rasm).



5-rasm. Mayda donador materiallarning issiqlik namlik xossalarini takomillashtirilgan o‘lchash qurilmasining maqbul tarkibini loyihalash algoritmining blok-sxemasi.

Olingan natijalar asosida yaratilgan takomillashtirilgan mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qiluvchi qurilmaning A kesimda ko‘rinishi dissertatsiya ishida keltirilgan.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, mayda donador materiallar uchun issiqlik namlik o‘lchash qurilmasi uchun o‘lchash sxemasi ishlab chiqildi va tanlangan o‘lchash sxemasi asosida qurilmaning real vaqtdagi statik va dinamik xarakteristikalari tadqiq qilindi.

Mayda donador materiallar uchun issiqlik namlik o‘lchash qurilmasining loyihalash algoritmi blok-sxemasiga muvofiq takomillashtirish natijasida qurilma intellektual mulk agentligi tomonidan IAP 06143 raqamli patent bilan tasdiqlangan.

Dissertatsiyaning «**Mayda donador materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qiluvchi takomillashtirilgan o‘lchash qurilmasining tajriba namunasi va loyihalash algoritmi**» deb nomlangan uchinchi bobida taklif etilgan mayda donador materiallarning issiqlik namlik parametrlarini takomillashtirilgan o‘lchash qurilmasining tajribaviy namunasi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. Mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik parametrlarining takomillashtirilgan o‘lchash qurilmasining tajribaviy namunasi.




7-rasm. Mayda donador materiallarning issiqlik namlik parametrlarini takomillashtirilgan o‘lchash qurilmasining sxemasi.

Yuqorida keltirilgan sxemaga ko‘ra (7-rasm) ikkita aralash faol yelkali ko‘prik sxemasidan foydalanganda chiqish signali quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$U_{chiq} = U_k \frac{K}{(K + 1)^2} [\varepsilon_1(W) + \varepsilon_1(T) - \varepsilon_2(T)].$$

Bunda  $K$  – ko‘prik o‘lchash sxemasining simmetriya koeffitsiyenti;  $\varepsilon_1(W)$  – sochiluvchan material namligi o‘zgarishidagi qarshilikning nisbiy o‘zgarishi;  $\varepsilon_1(T)$  - sochiluvchan material oqimi haroratining o‘zgarishidagi  $R_{20}$  qarshilikning nisbiy o‘zgarishi;  $\varepsilon_2(T)$  - sochiluvchan material oqimi haroratining o‘zgarishidagi  $R_{23}$  qarshilikning nisbiy o‘zgarishi.

Mazkur formula issiqlik namlik parametrlarini tadqiq qiluvchi qurilmaning ikkita ish rejimlari uchun ya’ni isitish elementining doimiy quvvatida ( $P_{qe} = const$ ) va qizdirish elementlarigacha hamda qizitish elementi yuzasida doimiy haroratlar farqi ( $\Delta T = const$ ) bo‘lgandagi holatlar uchun tatbiq etildi. Natijada  $P_{qe} = const$  rejimida qurilmaning statik harakteristikasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.



8-rasm. Sochiluvchan material uchun namlik issiqlik o‘zgartgichining statik xarakteristikasi.

O‘rganilayotgan issiqlik o‘zgartgichida yarimo‘tkazgichli qarshilik termometrlari ko‘rinishidagi termosezgir elementlar bilan  $P_{qe} = const$  rejimida katta sezgirlik kuzatildi. Sochiluvchan materiallarning namlik issiqlik o‘zgartkichlar ining bunday ishlashi texnik jihatdan eng sodda hisoblanadi.

Sochiluvchan materiallar qo‘llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va nazorat etish tizimlari tomonidan namlik o‘zgartkichlariga bo‘lgan talablarni hisobga olgan holda, ushbu o‘zgartkichlar ning dinamik xarakteristikalarida o‘tish jarayonining vaqt doimiysi kattaligi muhim hisoblanadi.



Umumiy holda, sochiluvchan materiallarning quvurli issiqlik namlik o'zgartgichining  $W(p)_{inuu}$  uzatish funksiyasini issiqlik o'tkazgichning asosiy elementlarini: issiqlik uzatgich, qizdirish elementi va termosezgir elementlarni inobatga olgan holda, quyidagicha ifodalash mumkin.


$$W(p)_{inuu} = W(p)_{iu} \cdot W(p)_{qe} \cdot W(p)_{tse},$$

bu yerda  $W(p)_{iu}$ - issiqlik uzatgichning uzatish funksiyasi;  $W(p)_{qe}$ - qizdirish elementining uzatish funksiyasi;  $W(p)_{tse}$ - termosezgir elementning uzatish funksiyasi.

Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dinamik xarakteristika, diametri  $D = 50 \cdot 10^{-3}m$  va devor qalinligi  $\delta = 0,2 \cdot 10^{-3}m$  bo'lgan mis quvurli bir jinsli bo'lmagan issiqlik uzatgich uchun quyidagi chegaralarda bo'ladi:

$$T_{vaqt\ tajz} = 4 \div 5 \text{ sek}.$$

Tajriba ishlari natijasida qumning namligini nazorat qilishda bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan quvurli issiqlik o'zgartkichlarining o'tish jarayoni egri chizig'i grafigi 9-rasmda keltirilgan.



9-rasm. Qumning namligini nazorat qilishda bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan quvurli issiqlik o'zgartkichning o'tish jarayoni egri chizig'i.

Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra vaqt doimiysi kattaligi nuqtayi nazaridan, o'lchash bo'lagi yupqa devorli mis quvurdan yasalgan bir jinsli bo'lmagan o'zgartgichning dinamik xarakteristikasi yaxshi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «**Mayda donador materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini takomillashtirilgan o'lchash qurilmasining metrologik tavsiflari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida o'lchash qurilmasi tajriba namunasining ishonchlilik oralig'i va xatoliklar taqsimoti o'rganildi.


Yaratilgan takomillashtirilgan o'lchash qurilmasining o'lchash natijalarini monitorga chiqarish va kalibrlashni soddalashtirish maqsadida haroratlar farqining namlikka bog'liqligi quyidagi formula bilan aniqlandi:

$$\Delta T = R_{T1} - R_{T2} = \frac{P_{qe}}{\alpha_w \cdot F}.$$

Qurilmaning yuqori sezgirligi va ishonchliligini ta'minlash uchun qizdirish elementining quvvati  $P_{qe}$ , issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\alpha$  va issiqlik almashinuv yuzasining optimal qiymatlari aniqlangan hamda haroratlar farqining namlikka bog'liqlik qiymatlari dissertatsiya ishida keltirilgan.

Tadqiqotlar natijasida mayda donador materiallarning issiqlik namlik xossalari o'zaro bog'liqligi, haroratlar farqi yuqori bo'lganda, namlik ko'rsatkichi ham yuqori bo'lishi aniqlandi.

Qum misolida olib borilgan tadqiqot ishi natijalariga muvofiq haroratlar farqi va namlikning o'zaro bog'liqlik grafigi tuzilgan (10-rasm).



10-rasm. Haroratlar farqining namlikka bog'liqlik grafigi.

Xatolikning normal qonuniyat bo'yicha taqsimlanishini o'rganish maqsadida qurilmaning minimal o'lchash diapazonida o'lchash imkoniyatlaridan foydalanildi, ya'ni 2% namlikda haroratlar farqining o'zgarishiga asosan qurilmaning xatoligi va ishonchliligi aniqlandi.

Eksperiment uchun tanlab olingan qumning minimal namligi shartli ravishda  $W = 2\%$  ga va issiqlik o'tkazuvchanligi  $\lambda_{qum} = 0.68 \frac{Wt}{m \cdot grad}$  ga teng deb olsak,  $\alpha$  issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti quyidagiga teng bo'ladi:

$$\alpha = Nu \frac{\lambda_{sm}}{d} = \frac{32.08 \cdot 0.68}{50 \cdot 10^{-3}} = 436 \frac{Wt}{m^2 \cdot grad}.$$


Yuqoridagi qiymatlarni inobatga olgan holda qumning 2% namligini o'lchashda sodir bo'ladigan xatoliklar tadqiq qilingan (1-jadval).

O'lchash natijalari bo'yicha xatoliklar.

T/R	$\Delta T$	$W_i$	$W_{o'rt}$	$\Delta W$	$\Delta W^2$	$\sum \Delta W^2$	$\sigma$	$\sigma_n$	$\varepsilon$
1	7,299567	2	2,066	0,066	0,004356	0,1076	0,109341463	0,034576807	0,023051204
2	7,299426	1,97	2,066	0,096	0,009216				
3	7,299589	2,1	2,066	-0,034	0,001156				
4	7,299567	2	2,066	0,066	0,004356				
5	7,299861	2,3	2,066	-0,234	0,054756				
6	7,299731	2,2	2,066	-0,134	0,017956				
7	7,299567	2	2,066	0,066	0,004356				
8	7,299589	2,1	2,066	-0,034	0,001156				
9	7,299559	1,99	2,066	0,076	0,005776				
10	7,299567	2	2,066	0,066	0,004356				

Bu yerda  $\Delta T$  – haroratlar farqi;  $W_i$  – o'lchashlar natijasi;  $\sigma$  – o'rtacha kvadratik xatolik;  $\varepsilon$  – ehtimoliy xatolik.

Ko'rsatkichlar	Qiymatlar
$\mu$	2
$X_{sr}$	2,066
n	10
s	0,5
ishonchlilik	0,97
d.f.	9
t-koeffitsiyent	2,262



11- rasm. Styudent koeffitsiyenti bo'yicha xatoliklarning taqsimlanish grafigi.

Olingan natijalar o'lchash xatoligi normal taqsimlanish qonuniyatiga bo'ysunishini va ishonchlilik koeffitsiyenti talab etilgan oralig'ida bo'lishini ko'rsatdi (10-rasm).

## XULOSA

“Mayda donador materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qiluvchi qurilmani takomillashtirish” mavzusi bo'yicha dissertatsiya ishi doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olindi:

1. Mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qilish hamda o'zgartkichlarini ishlab chiqish uchun ehtiyojlar, ularni qurish tamoyillari tahlili, tizimlashtirish va mayda donador sochiluvchan materiallar harorati va namligini tezlik va aniqlik mezonlari asosida nazorat qilish uchun yangi issiqlik o'zgartirgichlarini yaratish usullari ishlab chiqildi.

2. Oqimdagi mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik parametrlarini o'lchash qurilmalarini ishlab chiqish uchun ularning sezgirligi va tezligini samarali darajada oshiradigan, bir jinsli bo'lmagan quvurli issiqlik o'tkazish asosida tuzilgan takomillashtirilgan qurilmaning tuzilish sxemalari taklif etilgan.

3. Quvurli o'tkazgichlarning issiqlikka bog'liqlik parametrlari, statik va dinamik karakteristikalarini tadqiq qilindi. Mayda donador sochiluvchan materiallarning turli namlik darajalarida, harorat taqsimoti va issiqlik oqimi qonuniyatini issiqlik to'rt qutbli sxemalar nazariyasiga asoslangan matematik modellar ishlab chiqildi. Eksperimental tadqiqotlar ishlab chiqilgan matematik modellarning fizik modellarga adekvatligini va tajriba natijalari bilan hisoblashlar o'rtasidagi tafovut belgilangan chegaradan oshmasligini ko'rsatdi.

4. Issiqlik namlik parametrlarini takomillashtirilgan o'lchash qurilmasining tuzilishini, statik va dinamik karakteristikalarining: sezgirlik, chiziqlilik va tezlik mezonlariga ko'ra optimal variantini sintezlashga zarur bo'lgan asosiy elementlarning parametrlari va boshqa kattaliklari bo'yicha morfologik jadvallari hamda loyihalash usullari ishlab chiqilgan.

5. Mayda donador materiallarning issiqlik namlik parametrlarini o'lchash qurilmasining aniqlik va tezlik mezonlari bo'yicha tarkibiy va parametrik loyihalash usuli va algoritmi ishlab chiqildi. Taklif etilgan usul va algoritmi mayda donador materiallar uchun issiqlik o'zgartirgichlaridan foydalanish, harorat taqsimotini hisoblash, elementlarning parametrlarini optimallashtirish mezonlarini tanlash, boshlang'ich muammoning ko'p ekstremalligini tekshirish va boshqa masalalarni yechishga asoslangan.

6. Issiqlik namlik parametrlarini takomillashtirilgan o'lchash qurilmasining asosiy xarakteristikalarini: statik, dinamik, sezgirlik, nochiziqlilik va o'zgartirgichlarning o'zgarish diapazonlari o'rganildi. Mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik parametrlarini takomillashtirilgan o'lchash qurilmasining xatoliklari tahlil qilindi va hisoblandi, natijada entropiya xatoligi 0,6 % dan oshmasligi aniqlandi.

7. Mayda donador sochiluvchan materiallarning issiqlik namlik xarakteristikalarini tadqiq qilish uchun quvurli o'tkazgich asosida tuzilgan, issiqlikni kam sezuvchi va issiqlikka o'ta sezgir uchta qismdan tashkil topgan takomillashtirilgan sinov qurilmasi ishlab chiqildi. Yaratilgan qurilmaning yangiligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Intellektual mulk agentligi tomonidan IAP 06143 patenti bilan tasdiqlangan.

8. Yaratilgan tajriba qurilma O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi "Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy tadqiqot instituti" Davlat muassasasi ko'p tarmoqli sinov laboratoriyasida qumning namligini va boshqa xarakteristikalarini olish uchun sinovdan o'tdi va bitta qurilmani joriy qilish natijasida olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 54 483 000 so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.03.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**АБДУРАХМАНОВ АЛИЖОН АБДУЛАХАТОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ТЕПЛОВЛАЖНОСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК МЕЛКОЗЕРНИСТЫХ  
МАТЕРИАЛОВ**

**05.03.01 - «Приборы. Методы измерения и контроля»**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Тошкент – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В 2023.3.PhD/T598.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.  
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице ([www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz)) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Улжаев Эркин</b> доктор технических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Мухамедханов Улугбек Тургудович</b> доктор технических наук, профессор  <b>Жумаев Одил Абдимажитович</b> доктор технических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Андижанский машиностроительный институт</b>

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.03.02 при Ташкентском государственном техническом университете. (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2.Тел:(99871)246-46-00; факс:(99871) 227-10-32; e-mail: [tstu\\_info@tdtu.uz](mailto:tstu_info@tdtu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрировано № \_\_\_\_\_). (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (998971) 207-14-70)

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.)

**Н.Р. Юсупбеков**  
Председатель Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор технических наук, профессор, академик АН РУз

**У.Ф. Мамиров**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор технических наук, доцент

**У.Т. Мухамедханов**  
Председатель научного семинара  
при Научном совете по присуждению учёных степеней,  
доктор технических наук, профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире особое внимание уделяется оценке качества мелкозернистых материалов, используемых в качестве сырья в различных отраслях промышленности, таких как пищевая, строительная и фармацевтическая. В связи с этим решается ряд важных задач по повышению качества конечного продукта за счет автоматизации технологических процессов с постоянным контролем и оценкой основных параметров, влияющих на качество продукции, в том числе показателей температуры и влажности, в производственных процессах с использованием тонкодисперсной продукции. Одной из важнейших задач является разработка усовершенствованных устройств измерения, позволяющих определять и контролировать различные показатели качества мелкозернистых материалов с одновременным обеспечением технических и метрологических свойств с учетом их структурных параметров, разнообразия и сложности.

В целях увеличения объемов и эффективности производства с использованием мелкозернистых материалов в мире, в частности, предусмотрена возможность работы по измерению и контролю температуры и влажности сырья в непрерывном потоке, с использованием измерительных методов и средств, направленных по скорости и точности процесса измерений проводится ряд научных исследований. В частности, быстро развиваются исследования теплофизических свойств мелкозернистых материалов на основе термического метода. С помощью тепловлажностных методов можно измерять и контролировать показатели температуры и влажности, которые являются основными показателями качества сырья в производственных процессах, а также создавать автоматизированные системы управления технологическими процессами. В связи с этим при измерении и контроле температуры и влажности мелких сыпучих материалов в непрерывном потоке с высокой чувствительностью и точностью можно быстро выполнять измерения, а результаты измерений могут отображаться в цифровом виде в системах управления. Создание и совершенствование дистанционных передатчиков и измерительных приборов является актуальной проблемой современности.

В настоящее время в республике широко реализуются целенаправленные меры, направленные на коренное улучшение фармацевтической и строительной отрасли. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы отмечены задачи, «...разработку программы дальнейшего развития отрасли строительных материалов; ... в три раза больше продукции фармацевтической промышленности; ...удвоить производство строительных материалов; ...сокращение сроков строительства на 30 процентов; ...снижение стоимости строительства на 20%. Реализация этих задач, в том числе совершенствование технологических процессов в фармацевтической и строительной промышленности, разработка средств, позволяющих измерять температуру и влажность продуктов в непрерывном

